


## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020-yil yanvar-iyun


Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **11312,4** mlrd. so`mni yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **97,3** % ni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **6689,7** mlrd. so`m yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **93,8** % ni tashkil qildi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan, asosiy kapitalga investitsiyalarning **40,9** % i yoki **4622,7** mlrd. so'm o'zlashtirildi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning **59,1** % ni yoki **6689,7** mlrd. so'mini markazlashgan investitsiyalar tashkil qildi. Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga **6335,4** mlrd. so'm investitsiyalar kiritildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **95,3** foizni tashkil qildi, Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan **235,9** mlrd. so'm yoki o'tgan yilga nisbatan **54,6** %, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan **118,4** mlrd. so'm o'zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,4** martaga oshdi. Bu yirik investitsion loyihalar bilan bog'liq bo'lib, "UZBEKISTAN GTL" ma'suliyati cheklangan jamiyati tomonidan tozalangan metan gazidan sintetik suyuq yoqilg'ini ajratib olish uchun mo'ljallangan uskunalar keltirilmoqda hamda qurilish ishlari bajarilmoqda.

**Markazlashgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da**



**Markazlashmagan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da**



- Korxonalar mablag'i
- Xorijiy investitsiyalar va kreditlar
- Aholi mablag'i
- Tijorat bank kreditlari
- Boshqa qarz mablag'lari

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning **40,9 %** i yoki **4622,7** mlrd. so'mini markazlashmagan investitsiyalar tashkil qildi. Shundan, yuqori ulush to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushiga to'g'ri kelmoqda. Bunga sabab viloyatimizda xorijiy korxonalar tomonidan ko'proq investitsiyalar jalb qilinganligi bilan bog'liqdir.



Korxonalar mablag'lari hisobidan **1160,0** mlrd. so'm investitsiyalar moliyalashtirilgan. Aholi mablag'lari hisobidan **757,0** mlrd. so'm yoki **6,7 %** ni tijorat bank kreditlari tomonidan jami investitsiyalarning **2,9 %** i yoki **328,2** mlrd so'm investitsiyalar jalb qilindi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar**  
(2020-yil yanvar-iyun oylarida)

	mlrd. so`m	o`shish sur`ati, % da	yakunga nisbatan, % da
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>11312,4</b>	<b>97,3</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>6689,7</b>	<b>93,8</b>	<b>59,1</b>
➤ Byudjet mablag`lari	235,9	54,6	3,6
➤ Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag`lari	-	-	-
➤ Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	118,4	240,8	1,7
➤ O`z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	6335,4	95,3	94,7
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>4622,7</b>	<b>102,8</b>	<b>40,9</b>
➤ Korxonalarining o`z mablag`lari	1160,0	60,5	25,1
➤ Aholi mablag`lari	757,0	92,8	16,4
➤ To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar	2369,9	179,7	51,2
➤ Tijorat banklari kreditlari	328,2	76,2	7,1
➤ Boshqa qarz mablag`lari	7,6	57,1	0,1


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi **40,9** % ni yoki **4622,7** mlrd. so`mni tashkil etdi. O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag`i **1160,0** mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning **10,2** % i o`zlashtirildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar hududlar kesimida**  
(2020-yil yanvar-iyun oylarida)

	Jami		shu jumladan xorijiy investitsiya va kreditlari	
	mlrd. so'm	o'sish sura'ti, % da	mlrd. so'm	jamiga nisbatan ulushi, % da
➤ Viloyat bo'yicha:	11312,4	97,3	8705,3	77,0
<i>shaharlar:</i>				
➤ Qarshi	511,7	41,6	116,5	22,8
➤ Shahrisabz	71,4	94,9	-	-
<i>tumanlar:</i>				
➤ G'uzor	3876,0	544,4	3341,3	86,2
➤ Dehqonobod	88,7	14,7	41,4	46,7
➤ Qamashi	76,3	64,5	0,3	0,4
➤ Qarshi	697,3	127,9	447,4	64,2
➤ Koson	108,5	83,3	17,7	16,3
➤ Kitob	412,5	189,9	274,6	66,6
➤ Mirishkor	205,3	279,3	65,3	31,8
➤ Muborak	683,0	106,7	426,2	62,4
➤ Nishon	4037,7	59,8	3851,5	95,4
➤ Kasbi	206,6	114,1	120,0	58,1
➤ Chiroqchi	103,2	83,2	2,8	2,7
➤ Shahrisabz	117,1	129,0	0,5	0,4
➤ Yakkabog'	117,1	84,8	-	-




## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida G'uzor va Nishon tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning G'uzor tumanida **34,2 %** i, Nishon tumanida esa **35,6 %** i o'zlashtirildi. Kitob tumanida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi **3,6 %** ni tashkil qilgan bo'lsa, Dehqonobod tumanida esa bu ko'rsatkich bo'yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi, ya'ni - **0,6 %**.

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi


	Jami mlrd. so'm	shu jumladan, ulushi % da		
		qurilish-montaj ishlari	mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jixozlari	boshqa xarajatlar
➤ Viloyat bo'yicha:	11312,4	24,2	42,3	33,5
<i>shaharlar:</i>				
➤ Qarshi	511,7	64,6	31,6	3,8
➤ Shahrisabz	71,4	52,7	40,6	6,7
<i>tumanlar:</i>				
➤ G'uzor	3876,0	11,3	7,7	81
➤ Dehqonobod	88,7	69,9	3,4	26,7
➤ Qamashi	76,3	45,0	34,7	20,3
➤ Qarshi	697,3	22,8	72,7	4,5
➤ Koson	108,5	45,9	30,4	23,7
➤ Kitob	412,5	57,2	37,5	5,3
➤ Mirishkor	205,3	23,0	39,7	37,3
➤ Muborak	683,0	46,9	47,0	6,1
➤ Nishon	4037,7	20,3	72,4	7,3
➤ Kasbi	206,6	23,0	67,4	9,6
➤ Chiroqchi	103,2	71,4	3,0	25,6
➤ Shahrisabz	117,1	38,3	50,3	11,4
➤ Yakkabog'	117,1	32,2	38,3	29,5



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

2020-yil yanvar-iyun




Tog'-kon sanoati tarmog'i bo'yicha **4652,9** mlrd. so`m o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining **41,1** % ini tashkil qildi, ishlab chiqarish sanoati sohasida **1661,1** mlrd. so`m investitsiya o'zlashtirilib, jami investitsiyadagi ulushi **14,6** % ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

2020-yil yanvar-iyun oylarida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **3600,5** mlrd. soʻmi boshqa yoʻnalishlarga yoʻnaltirilgan boʻlib, boshqa yoʻnalishlarga yoʻnaltirilgan investitsiyalarning hajmi jami oʻzlashtirilgan investitsiyalarning **31,8** % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi **601** mlrd. soʻmni tashkil etib, jami investitsiyalarning **5,3** % ini oʻzlashtirildi. Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik qayta qurollantirishga yoʻnaltirilgan investitsiyalar **564,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi va viloyatda jami oʻzlashtirilgan investitsiyalarning **5** % ini tashkil qildi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2020-yil yanvar-iyun oylarida **8705,3** mlrd. so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning **76,9** % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.




Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar **2369,8** mlrd. so`mni tashkil qildi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **27,2** %. Shuningdek, **6939,8** mlrd. so`m xorijiy

kreditlar hisobiga to`g`ri keldi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **79,7** % ni tashkil qildi.

## Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Xorijiy investitsiya va kreditlari (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		xorijiy investitsiya	xorijiy kreditlar
➤ Viloyat bo'yicha:	<b>8705,3</b>	<b>1765,5</b>	<b>6939,8</b>
<i>shaharlar:</i>			
➤ Qarshi	116,5	27,8	88,7
➤ Shahrisabz	-	-	-
<i>tumanlar:</i>			
➤ G'uzor	3341,2	25,6	3315,6
➤ Dehqonobod	41,4	41,4	-
➤ Qamashi	0,3	0,3	-
➤ Qarshi	447,3	438,2	9,1
➤ Koson	17,7	5,7	12,0
➤ Kitob	274,6	180,6	94,0
➤ Mirishkor	65,3	65,3	-
➤ Muborak	426,2	63,7	362,5
➤ Nishon	3851,5	796,4	3055,1
➤ Kasbi	120,0	120,0	-
➤ Chiroqchi	2,8	-	2,8
➤ Shahrisabz	0,5	0,5	-
➤ Yakkabog'	-	-	-

## Uy-joylarni foydalanishga topshirish *ming.kv.m.*



2020-yilning yanvar-iyun oylarida jami umumiy maydoni 455,7 ming kv.m, (2019-yilning mos davriga nisbatan 87,7 %) bo'lgan 2447 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirildi. Ulardan umumiy maydoni 200,4 ming kv.m. bo'lgan 1142 tasi qishloq joylarda foydalanishga topshirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarni hududlar kesimida solishtiradigan bo'lsak, eng ko'pi Kitob tumanida ishga tushirilgan 77,9 ming kv.m. va u viloyatda ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 17,1 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Muborak tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.



**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: B.Jononov**

aloqa telefoni: 75-221-32-47